

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
QARORI**

**FRANSIYA TARAQQIYOT AGENTLIGI ISHTIROKIDA “CHORVACHILIK SOHASINI
BARQAROR RIVOJLANTIRISHNI MOLİYALASHTIRISH” LOYIHASINI AMALGA
OSHIRISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA**

Chorvachilik mahsulotlari yetishtirish va qayta ishlash sohasida ilg‘or xorijiy texnologiyalarni faol joriy etish, fermer xo‘jaliklari va qishloq xo‘jaligi tashkilotlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ularning ishlab chiqarish salohiyatini oshirish, shuningdek, Fransiya taraqqiyot agentligi bilan hamkorlikni yanada kengaytirish maqsadida:

1. Quyidagilar:

a) 2021-yil 28-iyunda O‘zbekiston Respublikasi va Fransiya taraqqiyot agentligining (keyingi o‘rinlarda — FTA) “Chorvachilik sohasini barqaror rivojlantirishni moliyalashtirish” loyihasini (keyingi o‘rinlarda — Loyiha) moliyalashtirish uchun 15 yil muddatga, shu jumladan 4 yillik imtiyozli davr bilan, 6 oylik EURIBOR+1% yillik stavkada 100,0 mln yevro miqdorida qarz ajratish to‘g‘risida bitimi (keyingi o‘rinlarda — qarz bitimi) imzolanganligi;

b) Loyiha umumiy qiymati 147,07 mln yevro ekvivalentida bo‘lib, shundan:

100 mln yevro — FTAning qarzi;

29,96 mln yevro ekvivalentidagi mablag‘lar — Loyiha ishtirokchilari (benefitsiarlar)ning ulushi;

17,10 mln yevro ekvivalentidagi mablag‘lar, shu jumladan soliq va bojxona to‘lovlari shaklida — 13,48 mln yevro ekvivalentidagi mablag‘lar, investitsiya davrida moliyaviy xarajatlarni to‘lash shaklida — 3,61 mln yevro ekvivalentidagi mablag‘lar O‘zbekiston Respublikasining Loyihani amalga oshirishdagi ulushini tashkil etishi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksiga asosan O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari bo‘yicha xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari tomonidan berilgan qarzlari (kreditlar) hisobidan yuridik shaxslar tomonidan bojxona hududiga olib kiriladigan tovarlar bojxona bojidan ozod qilinganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

Belgilansinki:

Loyihani amalga oshirish doirasida FTA qarzi hisobidan xarid qilinadigan tovarlarni (ish, xizmatlarni) va maxsus transport vositalarini olib kirishda (sotib olishda) qo‘shilgan qiymat solig‘i tovarlarni (ish, xizmatlarni) olib kiruvchilar (import qiluvchilar, xizmatlarni sotib oluvchilar) tomonidan to‘lanadi;

ushbu bojxona boji imtiyozlari natijasida bo‘shagan mablag‘lar hamda tovarlarni olib keluvchilar tomonidan to‘langan qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi O‘zbekiston Respublikasining Loyihani amalga oshirishdagi ulushi deb hisoblanadi;

Loyiha Qoraqalpog‘iston Respublikasi va barcha viloyatlarda amalga oshiriladi;

(2-bandning beshinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-dekabrda PQ-471-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 01.01.2023-y., 07/23/471/0001-son — 2023-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

Loyiha bo‘yicha jalb etiladigan kreditga xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq ehtimoldagi tavakkalchiliklarni qoplash maqsadida mazkur kreditni qayta kreditlash doirasida O‘zbekiston Respublikasi marjasi 0,5 foiz miqdorida bo‘ladi;

Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo‘mitasi Loyiha o‘z vaqtida va to‘liq amalga oshirilishi, uning muvofiqlashtirilishi va boshqarilishi, shuningdek, Loyihani amalga oshirish davrida monitoring va hisobot yuritilishi uchun mas‘ul ijro etuvchi organ hisoblanadi;

kredit liniyasini boshqarish, FTAning qarzi o‘z vaqtida o‘zlashtirilishi va maqsadli foydalanilishini ta‘minlash, shuningdek, subloyihalarni amalga oshirish bo‘yicha monitoring va hisobotni yuritish funksiyalari Loyihada ishtirok etuvchi O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklariga yuklanadi;

qarz bitimi doirasida yuzaga kelgan barcha to'lovlar Loyihada ishtirok etuvchi banklar bilan qayta kreditlash bitimlari imzolangunga qadar Davlat budjeti hisobidan qoplab beriladi va qayta kreditlash bitimlari imzolanganidan so'ng Loyihada ishtirok etuvchi tijorat banklari tomonidan ularga ajratilgan mablag'lar miqdoriga mutanosib ravishda O'zbekiston Respublikasining respublika budjetiga qaytariladi;

Loyihani amalga oshirish davri 5 yilni (2022 — 2026-yillar) tashkil etadi.

3. Quyidagilar:

“Chorvachilik sohasini barqaror rivojlantirishni moliyalashtirish” loyihasining asosiy texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari **1-ilovaga** muvofiq;

“Chorvachilik sohasini barqaror rivojlantirishni moliyalashtirish” loyihasi doirasida mablag'lardan foydalanish sxemasi **2-ilovaga** muvofiq;

“Chorvachilik sohasini barqaror rivojlantirishni moliyalashtirish” loyihasi doirasida Fransiya taraqqiyot agentligining qarzini so'ndirish, foiz va komissiya to'lovlarini amalga oshirishning prognoz jadvali **3-ilovaga** muvofiq;

“Chorvachilik sohasini barqaror rivojlantirishni moliyalashtirish” loyihasini amalga oshirish bo'yicha “Yo'l xaritasi” **4-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

4. Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi bir oy muddatda belgilangan tartibda qo'mita huzurida yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan FTA ishtirokida “Chorvachilik sohasini barqaror rivojlantirishni moliyalashtirish” loyihasini amalga oshirish guruhini (keyingi o'rinlarda — loyihani amalga oshirish guruhi) tashkil etsin.

5. Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi raisi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi va viloyatlar hokimlari zimmasiga Loyiha doirasidagi tadbirlarni samarali amalga oshirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, shuningdek, FTA va milliy qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiq tegishli hisobotlar va hujjatlarning o'z vaqtida tayyorlanishi hamda taqdim etilishini ta'minlash uchun shaxsiy mas'uliyat yuklansin.

6. Moliya vaziriga O'zbekiston Respublikasi nomidan Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi hamda Loyihada ishtirok etuvchi tijorat banklari bilan FTAning qarz mablag'larini qayta kreditlash bo'yicha uch tomonlama bitimlarni imzolash, shuningdek, zarur hollarda ushbu bitimlarga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish vakolati berilsin.

Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi hamda Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi ikki oy muddatda Loyihada ishtirok etuvchi kamida beshta tijorat banklarining ro'yxatini shakllantirsin.

7. Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi:

Loyihani amalga oshirish davrida Loyihani amalga oshirish guruhining yillik xarajatlar smetasini va shtatlar jadvalini tasdiqlash uchun har yili Moliya vazirligiga kiritсин;

Loyiha bo'yicha o'zlashtirilgan mablag'lar hamda erishilgan natijalar yuzasidan ma'lumotlarni o'zining rasmiy veb-saytida muntazam joylashtirib borsin.

8. Adliya vazirligi:

O'zbekiston Respublikasi va FTA o'rtasidagi qarz bitimi;

Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi hamda Loyihada ishtirok etuvchi tijorat banklari bilan birgalikda Loyiha doirasida FTAning qarzlarni qayta kreditlash bitimlari va ularga kiritiladigan o'zgartirishlar yuzasidan belgilangan tartibda yuridik xulosalar bersin.

9. Mazkur qarorning ijrosini samarali tashkil qilishga mas'ul va shaxsiy javobgar etib Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi raisi B.T. Norqobilov belgilansin.

Qaror ijrosini muhokama qilib borish, ijro uchun mas'ul idoralar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosarlari J.A. Qo'chqorov va Sh.M. G'aniyev zimmasiga yuklansin.

Amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijadorligi yuzasidan 2022-yil 15-may va 2022-yil 15-dekabrga qadar O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga axborot berilsin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,

2022-yil 13-yanvar,
PQ-84-son

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 13-yanvardagi PQ-84-son qaroriga
1-ILOVA

**“Chorvachilik sohasini barqaror rivojlantirishni moliyalashtirish” loyihasining asosiy texnik-
iqtisodiy**

KO'RSATKICHLARI

T/r	Ko'rsatkich nomi	O'lchov birligi	Jami	Shu jumladan:		
				Fransiya taraqqiyot agentligi mablag'lari	Kredit oluvchi loyiha tashabbuskorlarining mablag'lari	O'zbekiston Respublikasi ulushi
1.	Loyihaning umumiy qiymati*	ming yevro	147 068,0	100 000,0	29 966,7	17 101,3
2.	Umumiy kapital qo'yilmalar miqdori	ming yevro	133 583,0	100 000,0	29 966,7	3 616,3
2.1.	Chorvachilik tarmog'ida ishlab chiqarishni rivojlantirish	ming yevro	119 866,7	89 900,0	29 966,7	
2.2.	Boshqa sarf-xarajatlar	ming yevro	10 100,0	10 100,0		
2.3.	Investitsiya davridagi moliyaviy xarajatlar	ming yevro	3 616,3			3 616,3
3.	Bojxona boji va soliq to'lovlari imtiyozlari	ming yevro	13 485,0			13 485,0
4.	Loyiha amalga oshirilishi uchun jalb qilinayotgan mavjud asosiy fondlar qiymati	ming yevro	Loyihaning amalga oshirilishi uchun jalb qilinayotgan fondlar mavjud emas			
5.	Loyiha doirasida jalb etiladigan kredit muddati	yil	7			
6.	Investitsiya davri davomiyligi	oy	60			
7.	Yaratilayotgan ishlab chiqarish fondlarining qiymati	ming yevro	119 866,7			
8.	Qarzni to'lash muddati	yil	15			
9.	Imtiyozli davr	yil	4			

Izoh: *Yakuniy qiymat ko'rsatkichlari batafsil loyiha-smeta hujjatlari, tovarlar (ishlar va xizmatlar) yetkazib berish bo'yicha belgilangan tartibda o'tkaziladigan xarid tartib-taomillari natijalari asosida belgilanadi.

**“Chorvachilik sohasini barqaror rivojlantirishni moliyalashtirish” loyihasi doirasida
mablag'lardan foydalanish**

SXEMASI

ming yevro

T/r	Komponentlar nomi	Qarz summasi		Qarzni qaytarish				Qarzni to‘lash usuli
				Davlat budjeti hisobidan		Loyiha ishtirokchilari hisobidan		
		miqdori	foiz	miqdori	foiz	miqdori	foiz	
1-komponent. Kapital investitsiya								
1.1.	Kredit liniyasi	65 900	65,90%			65 900	100%	Ishtirok etuvchi tijorat banklari tomonidan amalga oshiriladi
1.2.	Inklyuziv investitsiya	30 500	30,50%					
1.2.1.	Kredit liniyasi (so‘mdagi subloyihalar uchun)	24 000	24%			24 000	100%	Ishtirok etuvchi tijorat banklari tomonidan amalga oshiriladi
1.2.2.	Kichik va o‘rta hajmdagi korxonalar uchun kafolat	6 500	6,5%	6 500	100%			Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi
1.2.3.	Investitsion subsidiyalar	Beg‘araz grant hisobidan moliyalashtiriladi*						
2-komponent. Imkoniyatlarni kuchaytirish								
2.1.	Ta‘minot tomonini moliyalashtirish	Beg‘araz grant hisobidan moliyalashtiriladi*						
2.2.	Talabgorlarni moliyalashtirish	Beg‘araz grant hisobidan moliyalashtiriladi*						
3-komponent. Institutsional rivojlantirish va loyihani boshqarish								
3.1.	Loyihani boshqarish	2 000	2%	2 000	100%			Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi
3.2.	Audit va aloqa	700	0,7%	700	100%			Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi
3.3.	Veterinariya xizmatini rivojlantirish	900	0,9%	900	100%			Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi
	Jami:	100 000	100%	10 100	10,1%	89 900	89,9%	

Izoh: * Qo'shimcha moliyalashtirish uchun Yevropa Ittifoqining 11,5 mln yevro miqdoridagi granti jalb qilinadi.

**“Chorvachilik sohasini barqaror rivojlantirishni moliyalashtirish” loyihasi doirasida
Fransiya taraqqiyot agentligining qarzini so‘ndirish, foiz va komissiya to‘lovlarini amalga
oshirishning**

PROGNOZ JADVALI

Qarz miqdori	— 100 mln yevro
Qarz muddati	— 15 yil
Imtiyozli davr	— 4 yil
Qarz bo‘yicha foiz stavkasi	— 6 oylik EURIBOR + 1%*
Majburiyat uchun vositachilik haqi	— 0,5% (o‘zlashtirilmagan qarz qismidan)
Boshlang‘ich bir martalik to‘lov	— 0,5% (umumiy qarz miqdoridan)

yevro

To‘lov muddatlari	Asosiy qarz bo‘yicha to‘lovlar	Umumiy foiz stavkasi	Majburiyat uchun vositachilik haqi	Boshlang‘ich bir martalik to‘lov**	Jami
28.08.2021	-	-	-	500 000	500 000
15.04.2022	-	67 800	120 000	-	187 800
15.10.2022	-	229 767	152 500	-	382 267
15.04.2023	-	342 767	101 111	-	443 878
15.10.2023	-	402 092	76 250	-	478 342
15.04.2024	-	459 533	50 833	-	510 367
15.10.2024	-	516 975	25 417	-	542 392
15.04.2025	-	571 278	-	-	571 278
15.10.2025	4 545 455	574 417	-	-	5 119 871
15.04.2026	4 545 455	545 311	-	-	5 090 765
15.10.2026	4 545 455	522 197	-	-	5 067 652
15.04.2027	4 545 455	493 376	-	-	5 038 831
15.10.2027	4 545 455	469 977	-	-	5 015 432
15.04.2028	4 545 455	443 867	-	-	4 989 322
15.10.2028	4 545 455	417 758	-	-	4 963 212
15.04.2029	4 545 455	389 508	-	-	4 934 962
15.10.2029	4 545 455	365 538	-	-	4 910 992
15.04.2030	4 545 455	337 573	-	-	4 883 028
15.10.2030	4 545 455	313 318	-	-	4 858 773
15.04.2031	4 545 455	285 639	-	-	4 831 093
15.10.2031	4 545 455	261 098	-	-	4 806 553
15.04.2032	4 545 455	234 989	-	-	4 780 443
15.10.2032	4 545 455	208 879	-	-	4 754 333
15.04.2033	4 545 455	181 770	-	-	4 727 225
15.10.2033	4 545 455	156 659	-	-	4 702 114
15.04.2034	4 545 455	129 836	-	-	4 675 290
15.10.2034	4 545 455	104 439	-	-	4 649 894
15.04.2035	4 545 455	77 902	-	-	4 623 356
15.10.2035	4 545 455	52 220	-	-	4 597 674
15.04.2036	4 545 455	26 110	-	-	4 571 564
Jami	100 000 000	9 182 591	526 111	500 000	110 208 702

Izohlar:

* 6 oylik EURIBOR+1% jami foiz stavkasi 28.06.2021-yil holatiga ko'ra 1,13 foizga teng deb qabul qilingan. Ushbu foiz stavkalari har bir qarz mablag'lari yechib olingan muddatlarda FTA tomonidan qayta belgilanadi.

** Boshlang'ich bir martalik to'lov keyinchalik loyihada ishtirok etuvchi banklar tomonidan qaytarilishi sharti bilan, dastlab Davlat budjeti hisobidan qoplab beriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 13-yanvardagi PQ-84-son qaroriga
4-ILOVA

**“Chorvachilik sohasini barqaror rivojlantirishni moliyalashtirish” loyihasini amalga oshirish
bo'yicha**

“YO'L XARITASI”

T/r	Chora-tadbirlarning nomlanishi	Ijro muddati		Ijro holatini nazorat qilishni tashkil etish	
		boshlanishi	yakunlanishi	nazoratga mas'ul	ko'rib chiqish muddati
1.	O'zbekiston Respublikasi va Fransiya taraqqiyot agentligi o'rtasida imzolangan qarz bitimiga O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining yuridik xulosasini olish va Fransiya taraqqiyot agentligiga taqdim etish. Mas'ul: Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi (B. Norqobilov), Adliya vazirligi (R. Davletov)	2022-yil yanvar	2022-yil yanvar	Vazirlar Mahkamasi (Sh. G'aniyev)	2022-yil yanvar
2.	Loyiha doirasida mutasaddi va mas'ul bo'lgan shaxslar imzolarining namunasini tasdiqlab, Fransiya taraqqiyot agentligiga taqdim etish. Mas'ul: Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi (B. Norqobilov), Moliya vazirligi (T. Ishmetov)	2022-yil yanvar	2022-yil yanvar	Vazirlar Mahkamasi (Sh. G'aniyev, J. Qo'chqorov)	2022-yil yanvar
3.	Loyiha doirasidagi xarajatlar smetasini va loyihani amalga oshirish guruhining shtat jadvalini tasdiqlash. Mas'ul: Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi (B. Norqobilov), Moliya vazirligi (T. Ishmetov)	2022-yil yanvar	2022-yil yanvar	Vazirlar Mahkamasi (Sh. G'aniyev, J. Qo'chqorov)	2022-yil yanvar
4.	Fransiya taraqqiyot agentligi talablariga muvofiq loyihani amalga oshirish guruhini tashkil etish. Mas'ul: Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi (B. Norqobilov)	2022-yil yanvar	2022-yil yanvar	Vazirlar Mahkamasi (Sh. G'aniyev)	2022-yil yanvar
5.	Loyiha doirasida subloyihalarni tanlash, ularni baholash, shuningdek, kreditni qayta moliyalashtirish muddatlari, foiz stavkalari (valyuta xatarini inobatga olgan holda) va boshqa shartlar nazarda tutilgan Fransiya	2022-yil fevral	2022-yil fevral	Vazirlar Mahkamasi (Sh. G'aniyev, J. Qo'chqorov)	2022-yil fevral

	taraqqiyot agentligi tomonidan ajratilgan qarzdan foydalanish tartibi to'g'risidagi nizomni ishlab chiqish va tasdiqlash. Mas'ul: Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi (B. Norqobilov), Moliya vazirligi (T. Ishmetov), Markaziy bank (M. Nurmuratov)				
6.	Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi, Moliya vazirligi va Loyihada ishtirok etuvchi tijorat banklari o'rtasida alohida qayta kreditlash bitimlarini imzolash. Mas'ul: Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi (B. Norqobilov), Moliya vazirligi (T. Ishmetov), Loyihada ishtirok etuvchi tijorat banklari	2022-yil fevral	2022-yil fevral	Vazirlar Mahkamasi (Sh. G'aniyev, J. Qo'chqorov)	2022-yil fevral
7.	Loyihaning texnik iqtisodiy ko'rsatkichlarini to'liq amalga oshirish, shu jumladan mablag'larni o'zlashtirish bo'yicha tarmoq jadvallari ishlab chiqish va tasdiqlash. Mas'ul: Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi (B. Norqobilov)	2022-yil fevral	2022-yil fevral	Vazirlar Mahkamasi (Sh. G'aniyev)	2022-yil fevral
8.	Tadbirkorlik subyektlariga chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash, saqlash va sotish, shuningdek, chorvachilik tarmog'ida xizmat ko'rsatish infratuzilmasini tashkil qilish hamda ishlab chiqarish vositalari, qishloq xo'jaligi texnologiyalari va uskunalarini tayyorlash va/yoki yetkazib berish uchun uzoq muddatli imtiyozli mablag'larni taqdim etish. Mas'ul: Loyihada ishtirok etuvchi tijorat banklari, Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi (B. Norqobilov)	2022-yil mart	Loyihani amalga oshirish davrida	Vazirlar Mahkamasi (Sh. G'aniyev)	Loyihani amalga oshirish davrida
9.	Loyiha doirasida tadbirkorlik subyektlariga ajratilgan kreditlarning o'z vaqtida va to'liq qaytarilishi yuzasidan tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish, shu jumladan ularning maqsadli ishlatilishini ta'minlash choralarini ko'rish. Mas'ul: Loyihada ishtirok etuvchi tijorat banklari	Loyihani amalga oshirish davrida	Loyihani amalga oshirish davrida	Vazirlar Mahkamasi (Sh. G'aniyev)	Loyihani amalga oshirish davrida
10.	Loyihaning o'z vaqtida va to'liq amalga oshirilishini ta'minlash, uni muvofiqlashtirish va boshqarish,	Loyihani amalga oshirish davrida	Loyihani amalga oshirish davrida	Vazirlar Mahkamasi (Sh. G'aniyev)	Loyihani amalga oshirish davrida

	shuningdek, loyihani amalga oshirish davrida monitoring va hisobotini yuritish. Mas’ul: Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo‘mitasi (B. Norqobilov), Loyihada ishtirok etuvchi tijorat banklari				
11.	Loyihani amalga oshirish mobaynida yillik belgilangan o‘zlashtirish prognozlarining bajarilishi, loyihaning o‘z muddatida va sifatli amalga oshirilishi, loyihaning budjet ko‘rsatkichlari ustidan doimiy nazorat olib borish. Mas’ul: Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo‘mitasi (B. Norqobilov), Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi (S. Umurzakov), Moliya vazirligi (T. Ishmetov)	Loyihani amalga oshirish davrida	Loyihani amalga oshirish davrida	Vazirlar Mahkamasi (Sh. G‘aniyev)	Loyihani amalga oshirish davrida

(Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 14.01.2022-y., 07/22/84/0023-son; 01.01.2023-y., 07/23/471/0001-son)